

Qalmoq tili

Vikipediya, ochiq ensiklopediya

Qalmoq tili — moʻgʻul tillaridan biri; asosan, RFning Qalmogʻiston Respublikasida, Astraxon va Rostov viloyatlari hamda Stavropol oʻlkasida, qisman XXR va Qirgʻizistonda tarqalgan. Qalmoq tilida soʻzlashuvchilarning umumiy soni 180 ming kishiga yaqin (oʻtgan asrning oxirlari).

Qalmoq tili	
ISO 639-2	xal
ISO 639-3	xal

Qalmoq tili 2 ta — torgut va derbet lahjalariga, bu lahjalar esa oʻz navbatida shevalarga ajraladi. Fonetik belgilari: choʻziq, qisqa va noaniq, kuchsiz talaffuz etiladigan fonemalarga egaligi, tanglay garmoniyasining mavjudligi va lab garmoniyasining yoʻqligi va boshqalar Morfologik belgilari: 8 kelishikning mavjudligi, grammatik jins kategoriyasining yoʻqligi va boshqalar Leksikasida sanskrit, tibet, xitoy, arab, fors va turkiy tillardan, keyingi davrlarda esa rus tilidan kirib oʻzlashgan soʻzlar anchagina. Qalmoqlar 1648 yildan 1924 yil gacha moʻgʻul yozuvining zayapandit (buddaviylik targʻibotchisi Zaya Pandit nomidan) koʻrinishidan foydalanganlar. Bu yozuvda koʻplab adabiyot yaratilgan boʻlib, ularning aksariyati 18—19-asrlarga mansub. 1924 yildan rus grafikasi asosidagi, 1931 yildan lotin grafikasi asosidagi, 1938 yildan yana rus grafikasi asosidagi yozuv joriy etilgan.

Adabiyot

- Pyurbeyev G.S., Grammatika kalmshkogo yazmka. Sintaksis, Elista, 1979; Grammatika kalmmskogo yazmka. Fonetika i morfologiya, Elista, 1983; Bardayev E.Ch., Sovremennmy kalmnskiy yazmk. Leksikologiya, Elista, 1985.



Ushbu maqolada Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) maʼlumotlaridan foydalanilgan.



Jahon tillaridan biri haqidagi ushbu maqola chaladir. Siz uni boyitib, (https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Qalmoq_tili&action=edit) Vikipediyaga yordam berishingiz mumkin.

"https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Qalmoq_tili&oldid=2053921" dan olindi

Bu sahifa oxirgi marta 13-Sentabr 2019, 12:30 da tahrir qilingan.

Matn [Creative Commons Attribution-ShareAlike litsenziyasi](#) boʻyicha ommalashtirilmoqda, alohida holatlarda qoʻshimcha shartlar amal qilishi mumkin ([batafsil](#)).

